XALQ DEPUTATLARI ZARAFSHON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-031-5-78-K/24 Zarafshon shahar

Zarafshon shahrining 2024-yil budjeti va mahalliy budjet daromadlar rejasining ijrosi tahlili hamda 2025-yil uchun yuridik va jismoniy shaxslarning MFY kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarini qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-son Farmoni va “Soliq majburiyatlarini bajarishda tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 7-sentabrdagi PF-6307-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-, 437-moddalari hamda Zarafshon shahar soliq inspeksiyasining 2024-yil 11-dekabrdagi 27-09083-son xati, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Shaharning iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqib, jismoniy shaxslar bo‘yicha 2025-yil uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tavsiya etiladigan yer solig‘i stavkasi 1-ilovaga hamda yuridik shaxslar bo‘yicha 2025-yil uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tavsiya etiladigan yer solig‘i stavkasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Xalq deputatlari shahar Kengashi 2025-yilning 1-yanvariga qadar keyingi soliq davri uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarining soliq stavkalarini belgilangan tartibda soliq organlariga kiritsin.

Qaror “Oltin vodiy” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

3. Qaror ijrosini nazorat qilish shahar soliq inspeksiyasi boshlig‘i R. Baxronov hamda xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi R. Nurnazarov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi

RAXMANOV
NAZIRBEK
ISRAILOVICH

Xalq deputatlari Zarafshon shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-031-5-78-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) 2025-yilda Zarafshon shahar uchun mutlaq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori

T/r	MFY nomi	Soliq stavkasining aniq miqdori	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (1 kv.metr uchun so‘mda)
1	“Alisher Navoiy”	457,6	1,00	457,6
2	“Konchilar”	457,6	1,00	457,6
3	“Oltinvodiy”	457,6	1,00	457,6
4	“O‘zbekiston”	457,6	1,00	457,6
5	“Quruvchi”	457,6	1,00	457,6
6	“Yoshlik”	457,6	1,00	457,6
7	“Istiqlol”	457,6	1,00	457,6
8	“Tinchlik”	457,6	1,00	457,6
9	“Geolog”	457,6	1,00	457,6
10	“Bahor”	457,6	1,00	457,6
11	“Navro‘z”	457,6	1,00	457,6
12	“Yulduz”	457,6	1,00	457,6
13	“Yangi Zarafshon”	457,6	1,00	457,6

Xalq deputatlari Zarafshon shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-031-5-78-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha 2025-yilda Zarafshon shahar uchun mutlaq miqdorda belgilangan yer solig‘ining bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori

T/r	MFY nomi	Soliq stavkasining aniq miqdori	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (1 gektari uchun so‘mda)
1	“Alisher Navoiy”	71 280 000,0	0,7	49 896 000,0
2	“Konchilar”	71 280 000,0	0,7	49 896 000,0
3	“Oltinvodiy”	71 280 000,0	0,7	49 896 000,0
4	“O‘zbekiston”	71 280 000,0	0,7	49 896 000,0
5	“Quruvchi”	71 280 000,0	0,7	49 896 000,0
6	“Yoshlik”	71 280 000,0	0,7	49 896 000,0
7	“Istiqlol”	71 280 000,0	0,7	49 896 000,0
8	“Tinchlik”	71 280 000,0	0,7	49 896 000,0
9	“Geolog”	71 280 000,0	0,7	49 896 000,0
10	“Bahor”	71 280 000,0	0,7	49 896 000,0
11	“Navro‘z”	71 280 000,0	0,7	49 896 000,0
12	“Yulduz”	71 280 000,0	0,7	49 896 000,0
13	“Yangi Zarafshon”	71 280 000,0	0,7	49 896 000,0